

SHARTNOMA № 40

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

« 02 » Fevral 2022 yil.

Ushbu shartnoma bir tomondan **“OSIYO FARM MEDICAL” MChJ** nomidan rahbar K.K. Abduraxmonov vakilligida kelgusida **“Ta'minotchi”** va ikkinchi tomondan Farg'ona viloyati Ruxiy kasalliklar shifoxonasi boshlig'i K.X. Karimov vakilligida kelgusida **“Buyurtmachi”** o'rtasida har ikki tomonning amaldagi **“Nizom”**lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1 **“Ta'minotchi” “Buyurtmachi”** ga ushbu shartnomaga asosan umumiyligi qiymati (**6 735 000,00**)

Olti million yetti yuz o'ttiz besh ming so'm 00 tiyin

(summa raqami va so'z bilan yoziladi)

bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida **“Tovar”** deb nomlanadi)ni spetsifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnomaga asosida yetkazib beradi.

1.2. **“Ta'monotchi”** esa o'z navbatida ushbu **“Tovar”**lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'lida belgilangan shartlar asosida **“Buyurtmachi”**ga to'laydi.

II. To'lov tartibi

2.1. **“Buyurtmachi”** shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** umumiyligi qiyamatining 30 % ni oldindan **2 020 500,00** so'm miqdorda **“Ta'minotchi”** ning hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan **“Tovar”** lar to'lovinining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatları

3.1. **“Ta'minotchi”**ning huquq va majburiyatları:

3.1.1. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** umumiyligi narxining 30 foizi **“Ta'monotchi”** ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ni **“Tovar”** bilan ta'minlaydi.

3.1.2. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga tegishli hujjatlar asosida **“Tovar”** ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga qulaylik yaratish maqsadida **“Tovar”** ni o'z transport vositalarida **“Iste'molchi”** ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish xarajati **“Ta'minotchi”** tomonidan qoplanadi.

3.1.4. **“Ta'minotchi”** ning transport vositasida yetkazilgan **“Tovar”** miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan **“Buyurtmachi”** **“Ta'minotchi”** ning vakili ishtirokida **“Tovar”** yetkazilgan kundayoq dalolatnomaga tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi **“Ta'minotchi”** tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. **“Ta'minotchi”** Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimoq orqali dorii vositalari va muruvvat yordamlarida kelgan **“Tovar”** lar bilan **“Buyurtmachi”** ni ta'monlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruhsatsiz **“Ta'minotchi”** **“Tovar”** ni olishga haqli emas.

3.2. **“Buyurtmachi”** ning huquq va majburiyatları:

3.2.1. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** uchun ularning umumiyligi qiyamatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, **“Tovar”** ni ishonchnomaga asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** dan O'zbekiston Respublikasida farmokologik ro'yhatdan o'tkazilib, ishlatishtiga ruhsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan **“Tovar”** larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan **“Tovar”** sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, **“Ta'monotchi”** **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonunning 26-moddasiga muvofiq **“Tovar”** ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, **“Ta'minotchi”** dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydiga **“Tovar”** qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. **“Ta'minotchi”** tomonidan yetkazib berilgan **“Tovar”** uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi **“Buyurtmachi”** tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonuning 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiyligi summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'limgan miqdorda **“Ta'minotchi”** ga penya to'laydi.

4.3. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Ta'minotchi”** ga berilgan buyurtmalarni **“Buyurtmachi”** ushbu shartnomaning umumiyligi summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda **“Buyurtmachi”** dan O'zbekiston Respublikasining **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonuning 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) **“Tovar”** summasining 5 foizi, tez buziladigan **“Tovar”** lar bo'yicha esa 10 foiz miqdorida jarima undiriladi.

4.4. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Ta'minotchi”** ga berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni **“Ta'minotchi”** asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun **“Ta'minotchi”** **“Buyurtmachi”** ga yetkazib berilmagan **“Tovar”** umumiyligi